2026 yil 15-yanvardagi Bank Boshqaruv yig'ilish
Bayoniga 2-Ilova

"O'zsanoatqurilishbank" ATB faoliyatining asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalar bo'yicha 2026-yil I yarim yillik ISh REJASI

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ullar
2026-yil 1-yarim yillik uchun ustuvor vazifalar				
I. Depozit va kreditlash rejalari				
1	2026-yil davomida kichik va o'rta biznesga jami **11,4 trln** so'mlik kreditlar ajratish belgilangan. Shu jumladan, 2026-yil 1-yarim yillikda **3,3 trln** so'm kreditlar ajratish shundan, dasturlar doirasida **975 mlrd** so'm *("Biznesga birinchi qadam" dasturi doirasida 167 mlrd so'm, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" dasturi doirasida 137 mlrd so'm, "Mahalla loyihasi" dasturi doirasida 671 mlrd so'm)* kredit ajratish choralarini ko'rish.	Mazkur kreditlar ajratish rejasi bajarilishini ta'minlash maqsadida: - kichik va o'rta biznes yo'nalishida **808 mlrd so'm**; - chakana biznes yo'nalishida **167 mlrd so'm** kredit ajratish orqali yarim yillik rejani to'liq bajarishni ta'minlash.	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	F.Abduraxmanov S.Abduvaliyev T.Norov A.Abdumajidov J.Ibragimov Sh.Xasanov A.Mananov
2	**420 mln dollar** xorijiy resurs mablag'lari jalb qilish choralarini ko'rish.	Xorijiy manbalardan 2026-yil I chorakda **180 ming dollar** va II-chorakda **240 ming dollar** resurs mablag'lari jalb qilish yuzasidan barcha zaruriy choralarni ko'rish.	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	Sh.Yakubov D.Sadirov A.Xakimov

3	Bank tomonidan tashqi manbalardan jalb qilingan mablag‘larni ustuvor ravishda loyihalarga yo‘naltirish orqali **375 mln dollar** *(shundan, I-chorakda 165 ming dollar va II-chorakda 210 ming dollar)* o‘zlashtirish choralarini ko‘rish.	Jalb qilingan mablag‘lardan **375 mln dollar** o‘zlashtirish maqsadli ko‘rsatkichi bajarilishi yuzasidan: - Korporativ biznes yo‘nalishida **175 mln dollar**; - O‘rta biznes yo‘nalishida **146 mln dollar**; - Mikro va kichik biznes yo‘nalishida **54 mln dollar** o‘zlashtirish (moliyalashtirish) choralarni ko‘rish.	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	F.Abduraxmanov T.Norov F.Xasanov J.Ibragimov A.Abdumajidov U.Jalilov
4	Resurs bazani shakllantirish rejasiga muvofiq jami resurs bazani *(2025-yil kutilma 82,7 trln so‘mdan)* mijoz va boshqa banklar depozitlari, xorijiy kredit liniyalari, ssuda, zaym va qimmatli qog‘ozlar, subordinar qarz manbalari hisobiga 2026-yil 1-yarim yillikda **85,6 trln so‘m**ga yetkazish.	Resurs bazasini **85,6 trln so‘m**ga yetkazish choralarini ko‘rish. Shundan, mijozlar depozitlari miqdori **3,8 trln so‘m.** Bunda: - Korporativ biznes, Ga’znachilik va boshqa yo‘nalishda **15,5 mln dollar**; - O‘rta biznes yo‘nalishida **3,5 mln dollar**; - Mikro va kichik biznes yo‘nalishida **2,3 mln dollar** - Chakana biznes yo‘nalishida **12,5 mlrd so‘m** miqdorida depozitlar jalb qilinishini ta’minlash.	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	Sh.Yakubov F.Abduraxmanov T.Norov O.Ekler A.Xakimov D.Sadirov F.Xasanov J.Ibragimov A.Abdumajidov A.Mananov
II. Biriktirilgan hudud va sohalarda amalga oshiriladigan ishlar				
5	Bankka biriktirilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida amalga oshirilishi rejalashtirilgan jami qiymati **1 477,2 mlrd so‘m** *(shundan, o‘z mablag‘i 884,1 mlrd so‘m, bank krediti 270,5 mlrd so‘m va xorijiy investitsiyalar 24,4 mln dollar)* bo‘lgan **196 ta** loyihalarni mahalliy hokimliklar va tijorat banklari bilan birgalikda ishga tushirish orqali **2 905** nafar ish o‘rinlari yaratish choralarini ko‘rish.	Shundan, - Qoraqalpog‘iston Respublikasida qiymati **527,8 mlrd so‘m** *(shundan, o‘z mablag‘i 352,5 mlrd so‘m, bank krediti 143,7 mlrd so‘m va xorijiy investitsiyalar 2,4 mln dollar)* bo‘lgan **95 ta** loyihalarni amalga oshirish va **1 025** nafar ish o‘rinlari; - Surxondaryo viloyatida qiymati **949,4 mlrd so‘m** *(shundan, o‘z mablag‘i 531,6 mlrd so‘m, bank krediti 126,8 mlrd so‘m va xorijiy investitsiyalar 22 mln dollar)* bo‘lgan **101 ta** loyihalarni amalga oshirish va **1 880** nafar ish o‘rinlari yaratish choralarini ko‘rish. - **** Bunda, tegishli loyihalarga o‘zgartirish kiritilganda, mos ravishda loyiha parametrlarini o‘zgartirib borilishi inobatga olish.*	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	S.Abduvaliyev F.Abduvaliyev

6	Qurilish materiallari sohasida qiymati **155,4 mln dollar**lik **13 ta** yirik loyihalar amalga oshib, **1,1 ming nafar** ish o‘rinlari yaratish choralarini ko‘rish.	Hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalarni tegishli mahalliy hokimliklar va tijorat banklari bilan birgalikda ishga tushirish, yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta’minlash hamda sanoat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib borish, shuningdek, korxonalar faoliyatini doimiy monitoring qilish va yuzaga kelgan muammolarni tezkorlik bilan hal etishda amaliy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish. **** Bunda, tegishli loyihalarga o‘zgartirish kiritilganda, mos ravishda loyiha parametrlarini o‘zgartirib borilishi inobatga olish.*	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	Sh.Yakubov Sh.Xalilov
7	Qurilish materiallari yo‘nalishida **ishlab chiqarish, eksport** va **investitsiyalarni o‘zlashtirish** parametrlari rejasini tegishli vazirlik, idora hamda mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda bajarilishini ta’minlash.	Sohada 1-yarim yillikda: - ishlab chiqarish hajmini **27 trln so‘m**ga yetkazish; - eksport hajmini **455 mln dollar**ga yetkazish; - - investitsiyalarni o‘zlashtirishni **595 mln dollar**ga yetkazish choralarini ko‘rish.	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	Sh.Yakubov Sh.Xalilov Tegishli mahalliy hokimliklar
8	Qurilish materiallari yo‘nalishida energiya iste’moli yirik korxonalarda energiya audit natijasida elektr energiyasini iqtisod qilish.	Energiya iste’moli yirik korxonalarda energiya audit natijasida **32 mln Kvt.s.** elektr energiyasini iqtisod qilish choralarini ko‘rish.	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	Sh.Yakubov Sh.Xalilov
III. 2026 yilga mo‘ljallangan “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” Davlat dasturi				
9	2026-yilda jami **133,5 ming nafar** aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirish belgilangan bo‘lib, 2026-yil 1-yarim yillikda aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirish yuzasidan barcha zaruriy choralarni ko‘rib borish.	Bank tomonidan 2026-yilda **29,9 ming nafar** doimiy ish o‘rinlari yaratilishini hamda **103,6 ming nafar** aholi bandligini ta’minlash maqsadida barcha zaruriy choralarni ko‘rib borish.	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	A.Ergashev S.Abduvaliyev F.Abduraxmanov T.Norov F.Abduvaliyev A.Abdumajidov J.Ibragimov F.Xasanov A.Mananov A.Omonov

10	Bankka biriktirilgan tumanlar va mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kambag’allik va ishsizlik darajasini tushirish hamda aholini daromadini oshirish choralarini ko’rib borish.	- Bankka biriktirilgan **687 ta** mahallalarda mikroloyihalar amalga oshirib, aholini ish bilan ta’minlash; - Har oyda tumanlarga chiqqan xolda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazib, ularning muammolarini ijobiy xal qilish choralarini ko’rish; - Sharoiti og’ir biriktirilgan mahallalarda muammolarni hal qilish yuzasidan tizimli ishlarni yo’lga qo‘yib, tegishli mutasaddi tashkilotlar hamda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish borish choralarini ko‘rish.	Har chorakda Yakuniy muddat 30.06.2026 yil	A.Ergashev F.Abduraxmanov Sh.Yakubov S.Abduvaliyev D.Umarov A.Islamov F.Abduvaliyev A.Abdumajidov J.Ibragimov F.Xasanov A.Mananov Sh.Xasanov
IV. 2026-yilga mo‘ljallangan bank transformatsiya jarayonlari				
11	Transformatsiya yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar.	- ““SQB Bill” — Raqamli to‘lovlar va tranzaksiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatish tizimini joriy etish;	30.03.2026 yil	A.Ergashev T.Norov A.Kamalov T.Rapiyev A.Kenjayev S.Ikramov
		- SCF — Ta’minot zanjirini moliyalashtirish dasturini ishlab chiqish choralarini ko‘rish.	30.06.2026 yil	A.Ergashev T.Norov A.Kamalov A.Abdumajidov

12	Sun’iy intellekt texnologiyalarini Bankda belgilab olingan yo‘nalishlar yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni jadallashtirish.	- Ijro intizomini nazorat qilish tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarini *(Devonxona xizmatiga)* joriy etish ishlarini yakunlash; - Mijozlardan kelib tushadigan savollarga avtomatik javob beruvchi sun’iy intellektga asoslangan Chat-bot to‘liq yaratilishini yakunlash; - Aloqa markazi faoliyatini monitoring va nazorat qilish uchun “Nutq tahlili” (Речевая аналитика) tizimini yaratish ishlarini yakunlash; - “Salom SQB” platformasida bankning xizmat avtotransportlari faoliyatini nazorat qiluvchi tizim yaratish hamda “Yo‘l varaqasi”ni avtomatlashtirish choralarini ko‘rish.		A.Ergashev D.Umarov T.Norov S.Ro‘zimov A.Kenjayev J.Ismatov A.Soliyev F.Turayev
V. Banklarning alohida tashabbuslari				
13	Yashil iqtisodiyot yo‘nalishadagi ustuvor vazifalarning bajarilishi.	- Bankda mavjud **quyosh panellarini** monitoring qilish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini **prognozlashtirish tizimini** joriy etish ishlarini yakunlash; - ‘‘Barqaror” (“yashil”) kredit portfeli hajmini **50 mln dollar**ga yetkazish choralarini ko‘rish.	30.12.2026 yil 30.06.2026 yil	Sh.Yakubov B.Sultonmurodov